



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2024 - yil « 28 » iyun 225 -son

Toshkent shahri

2024/2025 o‘quv yili uchun respublika davlat oliy ta‘lim muassasalariga qabul jarayonini yuqori saviyada tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF–81-son Farmoni ijrosini ta‘minlash hamda respublika oliy ta‘lim muassasalarida 2024/2025 o‘quv yilida talabalar qabulini yuqori saviyada o‘tkazish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF–81-son Farmoni va uning ijrosini ta‘minlash maqsadida tasdiqlangan Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining nazorat rejasi ijro uchun qabul qilinsin.

2. Vazirlikda **joriy yilning 1-noyabriga** qadar faoliyat yuritadigan **“Qabul-2024” shtabi** tashkil etilsin va uning tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Qabul-2024” shtabiga quyidagi vazifalar yuklatilsin:

a) oliy ta‘lim muassasalarida qabul jarayoni yuqori saviyada, shaffof va adolatli o‘tishi uchun barcha tashkiliy choralar ko‘rish;

b) qabul jarayonini tashkil etish hamda muvofiqlashtirib borish, jumladan: alohida iqtidor talab etiladigan bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga talabalarni qabul qilish uchun kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish;

ikkinchi va undan keyingi oliy ta‘limga qabul qilish;

magistratura mutaxassisliklariga qabul qilish;

texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga suhbat asosida qabul qilish;

iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta‘lim shakliga suhbat natijalariga ko‘ra tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida qabul qilish;

v) davlat oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga o'qishga qabul qilish bo'yicha ariza topshirgan talabgorlarning xorijiy til sertifikatlarini amal qilish muddati va haqiqiylikini tekshirish. Bunda:

xorijiy davlatlarning tegishli tashkilotlariga murojaatlar yo'llash;

tekshirish natijalariga ko'ra, talabgorlarni onlayn tizim orqali xabardor qilish;

zaruratga ko'ra, davlat oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan tajribali xorijiy til o'qituvchilaridan iborat ekspertlar guruhini shakllantirish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirib borish;

g) oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish;

d) qabul jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammo va kamchiliklar hamda qabul natijalari yuzasidan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rahbariyatiga axborot kiritib borish.

4. Oliy ta'lim muassasalari rektorlari (direktorlari):

a) Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4-iyundagi kengaytirilgan majlisi 45-son bayoni qarori bilan "**Koll markaz (Call center)**" va **maslahat markazlari** faoliyatini tashkil etish yuzasidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlasin va qat'iy nazoratga olsin;

b) **2024-yil 1-iyulgacha** kasbiy (ijodiy) imtihonlar o'tkaziladigan hududlar, bino va auditoriyalarni belgilasin, tayyor holatga keltirsin, to'liq videokuzatuv kameralari bilan ta'minlasin hamda kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish bo'yicha mas'ullar tarkibini tasdiqlasin;

v) 2024/2025 o'quv yili qabulini yuqori saviyada o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini **3 kun muddatda** ishlab chiqib tasdiqlasin va ijrosini ta'minlasin;

g) oliy ta'lim muassasalari tomonidan tasdiqlangan qabul komissiyalari tarkibining har bir a'zosiga yuklatilgan vazifalarni talab darajasida bajarilishini ta'minlasin;

d) kasbiy (ijodiy) imtihon topshiradigan abituriyentlar haqida ma'lumotlar tayyorlash, ijodiy imtihonlar natijalarini rasmiylashtirish, jamlash hamda taqdim etishga mas'ul va ijrochi xodimlarga yo'l qo'yiladigan xatoliklar oqibati va javobgarligi to'g'risida batafsil tushuntirish va yo'riqnomalar berishni tashkil etsin;

e) Vazirlar Mahkamasining "Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2022-yil 11-yanvardagi 17-son qaroriga muvofiq texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish jarayonini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida:

oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi mas'ul kotibining alohida o'rinbosari rahbarlik qiluvchi ishchi guruhini tashkil etish;

tashkil etilgan ishchi guruhi a'zolarining asosiy vazifalari va mas'uliyatini aniq belgilash;

ro'yxatdan o'tgan arizalarni muntazam tahlil qilib borish va shunga muvofiq suhbat komissiyalarini tashkil etish va ularning Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom talablariga muvofiq faoliyat olib borishini ta'minlash;

suhbat jarayonini to'liq videokuzatuv asosida o'tkazilishini ta'minlash;

suhbat jarayoni boshlangunga qadar Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish tartibi to'g'risidagi nizom ilovalariga muvofiq zarur hujjatlarni tayyorlash choralarini ko'rsin.

5. Texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilishda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarning ro'yxatdan o'tishida tizimga ularning ma'lumotlarini to'g'ri kiritilishi yuzasidan nazoratni amalga oshirsin;

oliy ta'lim muassasalari rektorlari (direktorlari) suhbat asosida o'qishga qabul qilish jarayonini o'z vaqtida va sifatli tashkil etilishi hamda shaffof o'tkazilishi bo'yicha shaxsiy javobgar etib belgilansin;

Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti (A.Xoliqov) amaldagi tartibga muvofiq texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni 2024/2025 o'quv yilida oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga suhbat asosida o'qishga qabul qilish jarayonlarini muvofiqlashtirsin.

6. Kasbiy (ijodiy) imtihon o'tkaziladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtihon o'tkazish dasturini ishlab chiqish va tasdiqlashga mas'ul oliy ta'lim muassasalari **2024-yil 30-iyungacha** kasbiy (ijodiy) imtihonlar fan dasturi va baholash mezonlarini Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanishini ta'minlasin va e'lon qilsin (rasmiiy veb-saytga joylashtirsin).

7. Belgilansinki davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga qabul qilishda:

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 14-iyundagi 211-son buyrug'ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hujjat topshirishda talab etiladigan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar darajalari ro'yxati;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 20-oktyabrdagi PQ-407-son qaroriga muvofiq **ko'rish, eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan** shaxslar tomonidan xorijiy tilni bilish bo'yicha milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro sertifikatni taqdim etish talab etilmasligi **inobatga olinsin**.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2022-yil 23-iyuldagi PQ-330-son qaroriga muvofiq Universitet huzurida Diplomatik akademiya tashkil etilganligi va kamida 3-yillik ish tajribasiga ega bo'lgan xodimlarni tor magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'qitish Akademiyaning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Mazkur topshiriq ijrosini ta'minlash maqsadida **Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetiga** (A.Umarov) Akademiyaning magistratura mutaxassisliklari bo'yicha o'qishga kirishda tanlovda ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tgan abituriyentlarning arizalarini kamida 3-yillik ish tajribasiga ega bo'lganligini asoslovchi hujjatlar bo'yicha tekshirgan holda tasdiqlash vazifasi yuklansin.

9. **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti** (T.Teshabayev), **Andijon davlat universiteti** (B.Akbaraliyev), **Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti** (R.Tojiyev):

"Qabul-2024" shtabiga jalb qilingan xodimlarning shtab faoliyatida doimiy ishtirokini ta'minlasin;

"Qabul-2024" shtabiga oliy ta'lim muassasalaridan jalb qilingan xodimlarning ish haqini saqlagan holda, ularning xizmat safari bilan bog'liq xarajatlarini asosiy ish joyidan qoplab bersin.

10. **Ishlar boshqaruvchisi** (Sh.Isamuxametov) **uch kun muddatda** "Qabul-2024" shtabi faoliyatiga jalb etilgan xodimlarni kompyuter, telefon o'rnatilgan ish o'rinlari hamda zarur ish yuritish uskunalari bilan ta'minlasin.

11. **Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi** (M.Allabergenov) va **Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi** (Q.Artikov) "Qabul-2024" shtabi faoliyatiga jalb etilgan xodimlarning dam olish va bayram kunlarida olib borgan mehnat faoliyati uchun bildirishnoma hamda tegishli buyruq asosida haq to'lash choralari ko'rsin.

12. **Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi** (X.Sultanov) va **Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi** (A.Abdullayev) mas'ul boshqarma va markazlar bilan birgalikda magistraturaga o'qishga kirish, ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lim bo'yicha qabul, talabalar o'qishini ko'chirish, texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga qabul qilish uchun arizalarni onlayn ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha elektron tizimlarni uzluksiz ishlashini ta'minlasin.

13. **Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi** (A.Abdullayev) mazkur buyruqning 12-bandida qayd etilgan qabul tizimlarini texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha markazda "Koll markaz (Call center)" faoliyatini yo'lga qo'yish hamda qabul jarayoniga jalb etilgan xodimlarni moddiy rag'batlantirish choralarini ko'rsin.

14. Mazkur buyruq ijrosining nazorati vazirning birinchi o'rinbosari Sh.Daliyev zimmasiga yuklansin.

Vazir



K.Sharipov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**



**O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligida tashkil
etiladigan "Qabul-2024" shtabi**

TARKIBI

1. Sh. Daliyev – Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari, *shtab boshlig'i*
2. A. Xoliqov – Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti boshlig'i, *shtab boshlig'i o'rinbosari*
3. D. Muydinov – Ta'lim tashkilotlarini litsenziyalash va faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i
4. A. Xo'jayev – O'quv jarayonini tashkil etish va xorijiy tillarni o'qitishni tashkil etish bo'limi boshlig'i
5. O. Davranov – Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi boshlig'i
6. U. Xodiyev – Qabul jarayonlarini va akademik mobillikni tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi
7. U. Davidov – Qabul jarayonlarini va akademik mobillikni tashkil etish bo'limi yetakchi mutaxassisi
8. A. Norqulov – Qabul jarayonlarini va akademik mobillikni tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi
9. A. Xodjayev – O'quv jarayonini tashkil etish va xorijiy tillarni o'qitishni tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi
10. B. Toshpo'latov – O'quv jarayonini tashkil etish va xorijiy tillarni o'qitishni tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi
11. B. To'raqulov – O'quv jarayonini tashkil etish va xorijiy tillarni o'qitishni tashkil etish bo'limi yetakchi mutaxassisi
12. V. Azimova – O'quv jarayonini tashkil etish va xorijiy tillarni o'qitishni tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi
13. A. Salimov – Ta'lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi
14. D. Odinayev – Ta'lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi
15. U. Abdullayev – Ta'lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

16. S. Mamatkarimov – Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi
17. H. Jalilov – Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi
18. A. Murtazayev – Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi
19. S. Adizov – Ta’lim tashkilotlarini litsenziyalash va faoliyatini muvofiqlashtirish bo’limi bosh mutaxassisi
20. D. Temirov – Ta’lim tashkilotlarini litsenziyalash va faoliyatini muvofiqlashtirish bo’limi bosh mutaxassisi
21. Sh. Kurbanov – Ta’lim tashkilotlarini litsenziyalash va faoliyatini muvofiqlashtirish bo’limi yetakchi mutaxassisi
22. X. Sultanov – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig’i
23. O. Pirmanov – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi boshlig’i o’rinbosari
24. A. Abdullayev – Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi direktori
25. M. Azimova – Raqamli ta’lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi xodimi
26. G’. Alimov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bosh mutaxassisi
27. Sh. Ibragimov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tyutori
28. A. Umarov – Andijon davlat universiteti bosh mutaxassisi
29. U. Qaxxorov – Oziq-ovqat texnologiyasi va muhandisligi xalqaro instituti boshqarma boshlig’i
30. A. Mamanazarov – Ta’lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi boshlig’i, *shtab kotibi*

Izoh: "Qabul-2024" shtabi a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.